

TALABALARING INGLIZ TILIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Xojimirzayeva Xilola Shokir qizi

Namangan davlat universiteti talabasi

Asqarova Nafisa Sobitxon qizi

Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolaning maqsadi o'quvchi, talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini ma'lum bir samarali metodlardan foydalanib rivojlantirishni o'rghanadi. Maqolada keltirilgan metodlardan qanday foydalaniishi va ularga asoslangan mashg'ulotlar ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompotensiya, til ko'nikmalari, metodlar, CLT, SLT, TBL, DOGME.

METHODOLOGY FOR DEVELOPMENT OF STUDENTS' COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH

Xojimirzayeva Xilola Shokir kizi, a student

of Namangan State Universitiy

Asqarova Nafisa Sobitxon kizi, a student

of Namangan State Universitiy

Annotation: The purpose of this article is to learn how to develop the communicative competence of students using certain effective methods. How to use the methods presented in the article and activities based on them.

Key words: Communicative competence, methods, 4 skills, CLT, DOGME, SLT, TBL.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Хожимирзаева Хилола Шокиржон кизи, студентка 4-курса

Наманганского Государственного Университета

Аскарова Нафиса Собитхон кизи, студентка 4-курса

Наманганского Государственного Университета

Аннотатция: Цель данной статьи является исследование развития коммуникативных компетенций студентов с помощью определенных эффективных методов. Также показано, как использовать представленные методы и упражнения на их основе.



Ключевые слова: коммуникативные компетенции, языковые навыки, методы, CLT, TBL, SLT, DOGME.

“Til bilgan el biladi” deyilganidek, o’zga mamlakatlar tillarini o’rganish nafaqat tilni balki ularni madaniyatini, yashash tarzini, urf-odatlari kabi jihatlarini ham o’rganadi. Hozirgi kunda ingliz tilini o’rganish dunyo bo’ylab keng tarqalmoqda. Bunga asosiy sabab Ingliz tilini o’rganish bilan turli sohalardagi manbaalarni o’rganish, o’z sohasidagi boshqa mutaxassislar bilan tajriba almashish, sanoat va biznesni rivojlantirish, sayohat vaqtidagi til bilan bog’liq muammolarni oldini olishga yordam bradigan ko’rik vazifasini bajaradi.

So’nggi yillarda o’quvchi va talabalarning ingliz tili o’rganish jarayonida dolzarb masalardan biri bo’lgan kommunikativ kompotensiyalarini rivojlantrish ta’lim sohasining ahamiyatga molik talabi bo’lib bormoqda. Kundalik hayotda insonlar ma’lum maqsadlar, ma’lumotlar almashish, shaxsiy fikr - mulohazalarini bildirish va eng asosiysi o’z ijtimoiy mavqe’iga ega bo’lish uchun o’zaro muloqot qilishadi. Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o’rganuvchi talabalar bu tildagi kommunikativ kompotensiyaslarini rivojlantirish o’ziga xos qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Yuzaga kelgan muammolarni bartaraf qilishda ma’lum bir metodikalardan foydalanish samarali natijalar beradi.

Ingliz tili o’qituvchilarini tilni o’rganuvchilarni kommunikativ kompotensiyasini oshirishni asosiy maqsad qilib olishgan. Olib borilayotgan dars kommunikativ kompotensiya komponentlarini o’z ichiga oladi va bu o’z navbatida talabalarni jarayonga o’z hohish va qizishlari bilan faol qatnashishni ta’minlashi kerak. Kommunikativ kompotensiya ma’lum bir tilda samarali va to’g’ri muloqot qilish qobiliyatini anglatadi. Bu o’z ichiga lingvistik bilimlarni, sotsiolingvistik bilimlarni va strategik kompotensiyalarini oladi. Til o’rganuvchilarda kommunikativ kompotensiyanı rivojlantirishga yordam beradigan bir nechta samarali o’qitish metodlari mavjud. Metodlar samarali natija berishi uchun ular 4 ta ko’nikma (eshtib tushunish, gapirish, o’qib tushunish va yozish) larni qamrab olishi kerak. Bunga asoslangan quyidagi metodlar mavjud: CLT, TBL, SLT, DOGME.

CLT - tilni kommunikativ o’qitish (Communicative Language Teaching) tilni muloqot yordamida rivojlantirish uslubi bo’lib, tilni o’rganish emas balki, tildan foydalana olish qobiliyatidir. Bu metod tilni real matnlar, jonli muloqot va muloqot mashg’ulotlariga talabalarni jalb qilish bilan amalga oshiriladi. CLT metodiga ko’ra darslarda o’qituvchi emas balki talabalar asosiy o’rinda bo’lishini talab qiladi va bu ularga o’ziga xos majburiyatlarni yuklaydi. O’rganish jarayonida talabalar mashg’ulot va topshiriqlarni yakka tartibdan ko’ra juft, kichik guruuhlar yoki butun guruuh bo’lib bajarishi ushbu metodning asosiy vazifasidir. CLT talabalarning so’zlashish qibiliyatini yaxshilash, yuqori darajada ravonlik, so’z boyligining kengligi va

muammolarga ossonroq va to'g'ri yechim topish qobilyatlarini ochib beradi. CLT da role play, debat va muhokama, muommoga yechim topish, proyektga asoslangan topshiriq kabi mashg'ulotlar talabalarni turli xil kontekstda kommunikatsiya qobilyatlarini kuchaytiradi.

SLT (Situational Language Teaching) metodi o'rganuvchilarga maxsus hayotiy vaziyatlarda tildan qanday foydalanishni o'rgatadi. Bu metod CLT va Grammar translation metodi o'rtaqidagi ko'prik hisoblanadi. SLT biroz eskirgan metod bo'lishiga qaramasdan tilini o'rganayotgan talabalarga foyda keltiradi deb hisoblaymiz. Hozirgi zamonaviy metodlarda grammatic qoidalar va so'z yodlash muloqot qilishdan pastroq ahamiyatga ega. Shu sababli bu metod so'z boyligi, grammatic qoidalar va og'zaki nutqni rivojlantirishga asoslanganligi sababli foydali deb hisoblaymiz. Ushbu metodga asoslangan amaliy mashg'ulotlarda realialardan foydalaniladi. SLT da drilling, takrorlash, og'zaki dialoglar, vaziyatga doir rolli o'yinlar kabi mashg'ulotlardan foydalaniladi. Og'zaki mashqlar tilni aniqligini, o'zlashtirilganligini ko'rsatadi.

DOGME (Developing the Curriculum Through an Organic Methodology) -

Kommunikativ o'qitish metodlaridan biri hisoblanib, darslik va materiallarga emas balki o'rganuvchilar o'rtaqidagi suhbat va o'zaro munosabatlarga urg'u beradi. Ushbu metod an'anaviy o'qitish usullariga qarshi reaksiya sifatida paydo bo'ldi. DOGME ga ko'ra o'qituvchi ma'lumot beruvchi yoki dars beruvchi emas balki tilni o'zlashtirishga yordam beruvchi bo'lishi, talabalarni o'zlari bilgan tildan foydalanishga undashlari va boshqalar bilan muloqot qilish orqali yangi til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishlari kerak. Darslar oldindan rejalshtirilib emas aksincha dars davomida talabalarga erkin muhit yaratilib o'zaro kommunikatsiya qilishlari, o'z fikrini bayon qilishiga imkoniyat yaratadi. DOGME metodida asosiy mashg'ulot sifatida davra suhabatini o'tkazish maqsadga muvofiq. Suhbat jarayonida talabalar oldindan tayyorlanmagan mavzularda o'zaro fikr almashadi. Jarayonda o'qituvchi talabalarni to'g'ridan to'g'ri tanqid qilmagan holatda ularning fikrlarini tinglaydi. Talabalar qiziqishlari doirasida ma'lumotlar yig'ib kelib uni bayon qiladi. Qo'shimcha dars jarayonida gazeta maqolalari, podkastlar va videolar kabi real vositalardan ham foydalaniladi. Bu talabalarni tilni o'rganishga qiziqishga va diqqat e'tiborini oshiradi, shuningdek ingliz tilini real hayotiy vaziyatlarda tushunish va uni qo'llashga yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, ingliz tili o'qitishda talabalarning kommunikativ kompotensiyasini oshirishga mo'ljallangan metodlarning umumiyligi g'oyasi ayni bir ko'nikma yokida yo'nalishga qaratilgan emas aksincha tilni o'zlashtirib undan foydalana olishga yordam bera oladigan barcha til ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Undan tashqari o'qituvchi qaysi metoddan foydalanishidan qat'iy

nazar avvalo u o'sha metodda u tanlagan maqsadga muvofiq kelishini ko'rib chiqishi va unga asoslangan materiallar tayyorlashi lozim.

REFERENCES

1. Hady, W. B. (2017). *Communicative Competence in Teaching English at Secondary Schools. A Critical Investigation in Yaff'ae District of Yemen*. GRIN Verlag.
2. Yuldasheva, D. K. (2023). Methods of Development of Communicative Competence of Students of the Tourism Direction in English Classes. In *International Conference of Education, Research and Innovation* (Vol. 1, No. 5, pp. 19-26).
3. Yuldasheva, D. (2023). The importance of listening comprehension materials in the development of communicative competence of tourism students. "Science Shine" International scientific journal, 8(1).
4. Юлдашева, Д. (2023). Turizm yo 'nalishi talabalariga ingliz tilida sohaviy leksikani o 'rgatish usullari. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(S/6).